Deyarli yuz yildan beri hududda olib borilayotgan arxeologik qazishmalarda oʻnlab Qadimgi Xorazm yozuvli sopol buyumlar (koʻzalar, ostadonlar) bundan darak berganidek, oʻnlab arxeologik yodgorliklar (shahar qoldiqlari, qalʼa va boshqa yirik aholi maskanlari) koʻrsatib turibdi. Ham Xorazmning markaziy va janubiy hududlari, ham shimoliy hududlaridagi koʻplab arxeologik obyektlarida topilgan va topilayotgan numizmatik materiallarning koʻpchiligida deyarli bir xil xususiyatlar – old yuzasida otliq tasviri, orqa yuzasida Qadimgi Xorazm hukmdorlariga xos tamgʻa va uning atrofida qadimgi xorazmiy yozuvi oʻrin olgan tangalar tashkil etadi. Islomdan oldingi Xorazm vohasi tangalari asosan ushbu vohaning qadimiy shahar xarobalari – Tuproq-qalʼa, Dingilja, Guldursun-qalʼa, Toʻq-qalʼa, Koʻhna-Uvaz, Duman-qalʼa, Qizil-qalʼa, Burgut-qalʼa, Angqa-qalʼa, Qavat-qalʼa, Qoʻziqirilgan-qalʼa, Teshik-qalʼa, Ayoq-qalʼa, Qum-qalʼa, Kuyuk-qalʼa, Yakkaparson, Meshekli va hokazo kabi yodgorliklardan topilgan boʻlib, ularning sezilarli bir qismi Shimoliy Xorazm hududida joylashgan qadimiy aholi maskanlaridir[3; 35.]. Xorazm tangalarining bir guruhi Amudaryoning oʻng havzasidagi qadimiy aholi maskanlari oʻrnida ham aniqlangan.

Quyi Amudaryo havzasi – Xorazm vohasining shimoliy qismlari tarixiga doir maʼlumotlar yozma manbalarda qisqa boʻlsa-da, biroq bir necha tortishuvli masalalarga aniqlik kiritadigan mohiyatdadir. Maʼlumki, bu hududning uzoq oʻtmishidan yaxshi xabardor boʻlgan Abu Rayhon Beruniy oʻzining “Osor ul-boqiya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) degan asarida xorazmliklarning oʻtmishda boʻlib oʻtgan voqealarni belgilashda qanday yondashganliklariga toʻxtalib, bu toʻgʻrida quyidagicha bilgiler keltirib oʻtgan: *“Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan toʻqqiz yuz sakson yil ilgari boʻlgan edi ... Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga koʻchib, turk podshohlari [ustidan] hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan toʻqson ikki yil keyin boʻldi...”* deb keltirgan maʼlumot[4;71] Quyi Amudaryo havzasi va Orol dengizining janubiy va janubi-gʻarbiy qirgʻoqlariga ham tegishli boʻlishi kerak. Chunonchi, ayrim forsiy yozmalarda Afrosiyobning Xorazmda ham boʻlgani, u bu yerda turib eronlik dushmanlar bilan toʻqnashgani haqida soʻz boradi: *“Men forslar orasidan shunday (xabarlar) topdim: turk hukmdori Afrosiyob oʻz xazina va qimmatbaho buyumlarini Kerderning yuqorisida, Xorazm oʻlkasidagi dengizning oʻrtasiga koʻmgan. Abarviz (Parviz) ibn Xurmuzgacha hech kimsa bu toʻgʻrida bilishmagan. U ushbu xazinani topgan va 12 yil boʻyi (oʻz yurtiga) tashib keltirilgan. Har oyda (bu yerdan) unga 10 xachirga ortilgan yuk kelib turgan, qimmatbaho buyumlarning katta boʻlagini toza oltin quymalar tashkil etgan”*[5;431].

Bundan koʻrinadiki, aslida rivojlangan oʻrta asrlarda yozilgan boʻlishiga qaramay, Xorazm vohasining qadimgi davrlari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan yarim afsonaviy maʼlumotlarda *“turk hukmdori Afrosiyob oʻz xazina va qimmatbaho buyumlarini Kerderning yuqorisida, Xorazm oʻlkasidagi dengizning oʻrtasiga koʻmgan”* kabi jummalarning oʻrin olishi bejiz emas. Yaʼni

miloddan oldingi so'nggi mingyillikda Xorazm – Eron ziddiyatlari davrida, manba tili bilan aytganda “turk – fors to'qnashuvlari” chog'ida Kerder va uning atroflari, hatto undan anchagina shimoli-g'arbdagi, Amudaryo daryosining suvi yig'iladigan “ko'l” – bugungi Orol dengizi forscha manba tili bilan aytganda “Xorazm o'lkasidagi dengiz” haqida xabarlar uzoq o'lkalargacha yoyilgan edi. “Xorazm dengizi” iborasi boshqa yozma manbalarda ham uchrab, X asrda yozilgan, muallifi aniqlanmagan forsiy tilli “Hudud ul-olam” asarida quyidagicha so'z yuritiladi: *“Yana biri Jayhun daryosi. Vaxon hududidan oqib keladi; Bulo'r nohiyati, Shaknon, Vaxon hududlaridan o'tadi. (So'ngra) Xutalon, Tuxoriston, Balx, Chag'oniya, Xuroson va Movarounnahr hududlariga oqib keladi. Xorazm hududidan o'tib, so'ngra Xorazm dengiziga quyiladi”*[6;8].

Xorazm vohasining geografik joylashuvi va tabiiy chegaralari haqida “Hudud ul-olam”da keltirilgan ma'lumotlardan Amudaryo quyiladigan suv manbai – Orol dengizining “Xorazm o'lkasi”ga kiritilgani anglashiladi: *“Yana boshqa bir cho'l bor. Uning sharqiy tomoni Marv hududidan o'tib, Jayhungacha yetadi. Uning janubiy chekkasi Bovard, Niso, Farov va Dehiston [dan o'tib] Xazarlar dengizigacha boradi; (u yerdan dengiz bo'ylab) Otil hududigacha yastangan, uning g'arbiy (chekkasi) Otil daryosi, shimoliy chekkasi Jayhun daryosi **Xorazm dengizi**, G'uz hududi va Bulg'or chegarasigacha yetib boradi. Bu cho'lni Xorazm va G'uz cho'li deydilar. Bu cho'lda bir qumlik bor: u Balx hududidan boshlanadi va Jayhun (daryosi)ning janubi bilan davom etib, Xorazm dengizigacha boradi. Eni ba'zi joylarda bir manzil bo'lsa, ba'zi qismida yetti manzil erur”*[7;10].

Shuningdek, “Hudud ul-olam”da Xorazmning boshqaruv markazlari bo'yicha ham qisqacha ma'lumot o'rin olgan bo'lib, undan anglashilishicha, Kat (manbada Koj) bo'lgan Xorazm vohasi X asrlardayoq Turkiston mintaqasining “eshigi”, ya'ni darvozasi hisoblanib, “G'uz Turkistoni” (manbada nuqtasi tushgan “z” harfi bilan G'ur ko'rinishida – *mual.*) deb ham bilingan: *“Koj – Xorazmning qasabasi, G'uz Turkistonining eshigi erur; turklar, Turkiston, Movarounnahr va Xazarning borgohi hisoblanadi, savdogarlar (gavjum) joy. Uning podshosi muxtoriyat (huquqiga ega) podshohlardan va uni Xorazmshoh deydilar. Ul joyning odamlari botir va jangovar. Farovon shahardir. Unda yostiqlik jildi, qaroqand, bo'z, kigiz, kamar va pishloq (yoki qimiz) tayyorlanadi”*[8;10].

Qizig'i shundaki, “Hudud ul-olam”da Kerder (Kardar) Xorazm vohasining bir qismi sifatida ko'rsatilib, u haqda quyidagicha ma'lumot keltiriladi: *“Kardar – aholisi gavjum shaharcha, ekinzorlari bor. Unda ko'plab (qorako'l) teri tayyorlanadi”*[9;22]. Quyi Amudaryo havzasining shimoliy hududlaridagi aholi maskanlari, suv tarmoqlari va hokazolar bo'yicha birlamchi ma'lumotlar rivojlangan o'rta asrlarda mintaqaga sayohat qilgan arab va fors geograflari asarlarida uchraydi. Ular orasida X asrda yashagan Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” (Yer suratining kitobi) nomli asarida Kardar, “Xorazm ko'li”, “Shosh daryosi”, Chag'ir O'g'uz va hokazo kabi joy nomlari o'rin olgan. Jumladan, asarda Xorazm ko'li haqida quyidagicha ma'lumot uchrab, u orqali Orol dengizining o'sha kezlardagi ko'lamini qanday bo'lgani haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lish mumkin: *“Xvorazm ko'lining aylanasi ilm ahlining bir to'xtamga kelgan fikriga ko'ra, taxminan yuz farsaxga teng. Uning suvi sho'r. Unda [ko'zga] ko'rinadigan [suvning] ketish yeri yo'q. Unga Jayxun daryosi, ash-Shosh daryosi va o'sha yerlardagi boshqa suvlar quyiladi. U kichik bo'lsa ham, uning suvi chuchuklanmaydi, sathi esa ko'tarilmaydi”*[10;39]. Qizig'i shundaki, arab va fors geograflari Jayhun, ya'ni Amudaryoning ma'lum bir joyga quyilib, ko'l hosil qilishi borasida yozar ekan, ushbu ko'lga “Shosh daryosi” ham suv quyishiga urg'u berishgan. Qadimda Yaksart, Silis deb atalgan Sirdaryoning o'sha

kezlarda Shosh daryosi deb atalishi diqqatni tortadi. Rivojlangan o'rta asrlar arab va fors manbalarida bu daryoning Sayxun, Banokat daryosi deb atalishi bilan birga, ayrim manbalarda Shosh daryosi deb atalishi ushbu suv tarmog'ining sezilarli bir qismi Shosh (Choch) vohasidan oqib o'tishi va voha mintaqaning taniqli hududlaridan biri bo'lishi bilan bog'liqdir.

Ibn Havqal Xorazmdagi aholi maskanlari orasida Kardar mavzesiga birmuncha keng to'xtalgan bo'lib, bu esa ushbu hudud o'sha kezlarda anchagina tanilgan joy bo'lganidan darak beradi.

Kardar va Jayhun orasida Mizdohqon [nomli] rustoq bor. Mizdohqon va Jayhun orasidagi [masofa] ikki farsax. U al-Jurjoniyaning qarshisida [joylashgan]. Kardar [atrofi] dagi shaharga [ketaverishdagi] xar bir qishloqda Jayhundan chiqarilgan o'zining arig'i bor. Bu ariqlarning hammasi [Jayhun] dan [boshlanadi]. So'ngra Jayhun ovchilar yashaydigan bir yerda Xvorazm ko'ligacha yetib boradi. U yerda hech qanday qishloq va binolar yo'q. Bu yer Xalanjon deb ataladi. Bu dengizning qirg'og'ida Xalanjon qarshisida g'uzlar yeri [joylashgan]. Sulx, va tinchlik bulganida, [guzlar] bu tomondan Karotakinga, boshka tomondan esa al-Jurjoniya keladilar. Bu nohiyaning hammasi chegara [yerlar]dir"[11;37-38].

Hozirgi O'zbekiston hududida Qadimgi Xorazm davlatidan tashqari Choch, So'g'd hududlarini o'z ichiga olgan qudratli Qang' podsholigi (Miloddan av. III asr) Parkana –Farg'ona davlati, Baqtriya, Yunon – Baqtriya davlati tashkil topdi. Yunon – Baqtriya davlatining asosini Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona tashkil yetadi.

Qang' davlatining joylashgan o'rni haqida olimlar o'rtasida yangicha qarashlar mavjud. A.Asqarovning fikricha, hozirgi Toshkent va Sirdaryo viloyatlari ham Janubiy Qozog'iston yerlarida yashovchi sak qabilalarning makedoniyalik Iskandar qo'shinlari va Salavkiylarga qarshi kurashlari jarayonida miloddan avvalgi III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topadi degan xulosaga keldi.

A.Asqarovning fikricha, Qang' davlatining asosiy yerlarini Toshkent vodiysi, Talas vodiysi, Chu daryosining quyi oqimlaridan, daryosigacha bo'lgan joylarni tashkil etgan. Qadimgi Xorazm va So'g'd yerlari ham Qang' davlatiga tobe bo'lgan.

Qang' davlatining ikkita markazi – Qanxa (Qang'diz) va O'tror (Turband) shaharlari bo'lgan. Qanxa shahri Toshkent vohasida, O'tror shahri esa Aris daryosi quyi oqimida joylashgan. Qang' davlati haqida Xitoy manbalarda ham ma'lumotlar bor. Xitoy tarixchisi Si – Ma-Syan' miloddan avvalgi II asrning oxirlarida O'rta Osiyoga kelgan Xitoy elchisi va sayyohi Ijan' – Syan' ma'lumotlariga asoslanib, bu hududda ko'chmanchi Qang'yuy yoki Qandzyuy davlati mavjudligi haqida yozadi. Uning ta'kidlashicha, Qang'yuy davlati aholisining urf – odatlari yuyechjilar urf– odatlariga o'xshash ekan. Xitoy manbalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, Anvsi (Parfiya) shimolda Qang'yuy bilan chegaradosh bo'lgan. Bu ma'lumotlarga ko'ra, Qang'yuy yoki Qanha davlati tarkibiga qadimgi Xorazm, Choch va So'g'diyona ham kirgan. Miloddan avv. II asrda Qang'yuy davlati o'z taraqqiyotining yuksak darajaga erishadi. Qang' davlati o'sha davrda vujudga kelgan ilk quldorlik davlatlardan biri edi.

Yuqorida keltirib o'tilgan o'nlab yodgorliklarda nafaqat islomdan oldingi Xorazm tangalari, balki O'rta Osiyoning boshqa vohalariga tegishli tangalar ham topib o'rganilgan. Jumladan, Kushon, Kushon-Sosoniylar, Sosoniylar, Buxoro, Sug'd (Samarqand), Chag'oniya va Choch tangalari bunga misol bo'la oladi[12;183-185]. Qizig'i shundaki, Xorazm vohasiga "kelib qolgan" mintaqa tangalarining ko'pchiligi qadimgi davrga emas, asosan ilk o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Jumladan, Samarqand tangalari VII asr ikkinchi yarmi — VIII asr boshlarida zarb

qilingan tangalar bo'lib, ular Ukurt-Chamuk, Tarxun (700-710) kabi Sug'd ixshidlariga tegishli tangalardir. Shuningdek, Xorazm vohasining Keskenkuyuk-qal'a yodgorligidan Buxorxudotlar sulolasi va Turgash xoqonligi tomonidan zarb qilingan tangalar topilgani diqqatga sazovordir[13].

Jetiosor yodgorligi (Quyi Sirdaryo havzasi — Janubiy Qozog'iston)dan 300 km janubi-g'arbda ham Qadimgi Xorazm tangalari topilgan bo'lib[13], bu ushbu yodgorliklar majmuasidan Xorazm vohasi madaniyatiga taalluqli bir qator artefaktlar qo'lga kiritilgan.

Islomdan oldingi Xorazm tangalari bo'yicha asosan S.P. Tolstov[14], V.I. Vaynberg[15] kabi arxeolog olimlar izlanishlar olib borishgan.

Ilk o'rta asrlarda Xorazmshoh-Afrig'iylar tomonidan zarb qilingan tangalar haqidagi birmuncha to'liqroq ma'lumotlarni tangashunos B. I. Vaynbergning "Qadimgi Xorazm tangalari" nomli rus tilidagi monografiyasini keltirish mumkin. Mazkur tadqiqotda Qadimgi Xorazm tarixiga oid bo'lgan yeng qadimiy tangalar tahlil qilingan bo'lib, ular A, B, V, G guruhlariga bo'lingan. Ushbu tadqiqot mavzusiga aynan G guruhiga mansub tangalar tegishli bo'lib, ular asosan Afrig'iylar davrida, VIII asrda zarb qilingan. Shuningdek, islomdan oldingi Xorazm tangalariga S.P. Tolstovning tadqiqotlarida birmuncha to'xtalib o'tilgan[16]. Bundan tashqari, bu davr Xorazm tangalari E.V. Rtveladze, Ye.V. Zeymal, D.V. Biryukov tadqiqotlarida u yoki bu darajada o'rin olgan[17;192]. Xorazm tarixiga oid tangalar guruhlar va tiplarga ajratilgan holda tahlil qilingan va ularga yozuvlar, tasvirlar, hukmdorlar bo'yicha izohlar berilgan. 712-yildan so'ng hukmronlik qilgan Azkajuvar-Chag'on, Shavat, Savshafan, Azkajuvar-Abdulloh davrlarida zarb qilingan tangalar ham B. I. Vaynberg asarida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotning o'tgan asrning 70-yillarida yaratilganligini inobatga olgan holda shuni aytish kerakki, o'tgan davr davomida ayrim ilmiy yangiliklar qo'lga kiritildi. Masalan tadqiqotchi V. V. Artevning izlanishlarida B.I. Vaynberg asarida tilga olinmagan Shavat nomi numizmatik materiallar asosida aniqlangan[18;54-56].

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda etnomdaniyatida asosan ikki etnik unsur – sharqiy eroniy va turkiy elatlarga xos xususiyatlar yetakchilik qilgan. Sharqiy eroniy tilli elatlar – bu asosan sug'diylar, qadimgi xorazmliklar va baqtriyalardan tashkil topib, ular orasida sug'diylar mintaqa bo'ylab keng yoyilgan edi. Ular Sug'd o'lkasi – Zarafshon va Qashqadaryo vohalaridan tashqari yana Ustrushona va Buxoro vohalari aholisining asosiy qismini tashkil etish bilan birga Choch, O'tror, Isfijob (Sayram) va Yettisuv aholisining sezilarli bir qismi sug'diylardan iborat edi[19;34-43]. Bundan tashqari, bu davrda sug'diylar o'zlarining rivojlangan yozuv tizimiga ega o'troq va hunarmand elat sifatida Ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab keng yoyilib, Sharqiy Turkiston, O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston) va Shimoli-G'arbiy Xitoyda o'z aholi manzillarini barpo etgan edilar. Sug'diylarning tanga-pul tizimi miloddan oldingi mingyillikning so'nggi asrlariga borib taqalib, bu vaqtda ilk sug'diy tilli tangalar Samarqand, Buxoro, Kesh va Naxshabda, milodiy III–IV asrlarda esa Choch vohasida zarb qilina boshlagan edi. Ilk o'rta asrlarga kelganda, aniqrog'i, VII asrdan boshlab O'tror, Farg'ona, Isfijob, Yettisuv ham sug'diy tilli tangalar zarb qilinadigan hududlarga aylanadi[20;219].

Qadimgi xorazmliklar esa Quyi Amudaryo havzasida yashaydigan hunarmand va savdogar elat sifatida o'zlarining oromiy negizli yozuviga ega edilar. Ular ham sug'diylar kabi xalqaro savdoda faol qatnashib, asosan Volga – Uralbo'yi, Kavkaz, slavyan o'lkalari bilan tig'iz savdo-sotiqni yo'lga qo'ygan edilar. Bu vaqtda muayyan bir voha hukmdorligi bo'lgan Xorazm o'z tanga-pul tizimiga ega bo'lib, qadimgi xorazmiy yozuvli tangalarning zarb qilina boshlanishi

miloddan oldingi mingyillikning so'nggi asrlari – milod boshlariga to'g'ri keladi, aytib o'tish joizki bu davrda qadimgi yunon yozuvli tangalar ham zarb qilingan[21;34].

Yunon-Baqtriya, Sug'd va Xorazmning ilk tangalaridan farqli o'laroq Kushon va uning izdoshlari bo'lmish Xioniylar, Eftaliylar va Turk xoqonligi tangalarida O'rta Osiyoning ko'chmanchilariga xos an'ana – tangalarda turli ramziy belgilar – urug' tamg'alari o'rin ola boshlaydi. Qang' davlati (mil.old. II – mil. III asrlar) bilan bog'lab tushuntiriladigan sug'diy yozuvli "Choch hukmdori" unvonli tangalarda ham urug' tamg'alari uchrab, bu esa tamg'a an'anasining negizi ko'chmanchi elatlarga taqalishi to'g'risidagi qarashlarni yanada kuchaytiradi. Xorazmdagi Afrig'iylar sulolasi (IV–X asrlar) tangalarida ham urug' tamg'alarini ko'chmanchilarga xos bu tizim ilk o'rta asrlarga kelgach deyarli barcha uzluksiz o'laroq tamg'alarining uchrashi ham chamasi ushbu xonadonning kelib chiqishi ko'chmanchi elatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. O'rta Osiyo o'troq hukmdorliklari tangalarida uchray boshlaydi. Biroz quyida ko'rib chiqiladiganidek, ilk o'rta asrlarda Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlardagi Choch, O'tror, Isfijob (Sayram), Farg'ona, Ustrushona, Sug'd (Samarqand, Panch, Kesh, Naxshab va b.), Buxoro, Shimoliy To'xoriston (Termiz, Chag'oniyon) kabi voha hukmdorliklar tangalarida ham uzluksiz o'laroq tamg'alar o'rin ola boshlashi esa bir tomondan ushbu hukmdorliklardagi boshqaruvchi xonadonlarning kelib chiqishi ko'chmanchi elatlarga borib taqalashini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan esa ko'chmanchilar ta'sirida o'troq sulolalar ham o'z tangasiga tamg'a tushirgan holda bostira boshlaganidan darak beradi.

To'g'ri, yuqorida aytib o'tilgan siyosiy uyushmalar – Sug'd, Buxoro va Xorazm tangalarining keyingi bosqichlarida borgan sari Yunon-Baqtriya[22] va Parfiya an'analari bilan uzoqlashgani (ikonografiyada birmuncha o'zgarish, sug'diy, xorazmiy yozuvli tanga matnlari va b.), Kushon tangalarida esa mintaqaning mahalliy o'troq va ko'chmanchi an'analari bilan bog'liq jihatlarning ustuvorlik qila boshlashi ko'zga tashlansa-da (o'troq va ko'chmanchi an'analarning qorishuvi, o'ziga xos syujetlar)[23;53], bu kabi o'zgarishlar ilk o'rta asrlardagichalik emas edi. Shunga o'xshash Sosoniylar Eroni (224-651) tangalaridan ta'sir olgan Xioniylar va Kidariylar kabi milodiy IV–V asrlarda hukm surgan ko'chmanchi negizli davlatlar tangalarida ham bir qator o'ziga xosliklar ko'rinadi. Biroq ularda ham tashqi ta'sir birmuncha kuchli bo'lgani sezilib turadi[24]. Ilk o'rta o'rta asrlarda Oy va Quyosh ko'rinishidagi astral belgilar to'rt qurolli Nananing atributlari sifatida Sug'd va Xorazm tasviriy san'atida ko'rina boshlaydi[25].

Quyi Amudaryo havzasi va Xorazm vohasi haqidagi manbalardan ko'rinadiki, mazkur hudud O'rta Osiyoning eng qadimiy va o'ziga xos madaniy-tarixiy markazlaridan biri hisoblanadi. Uning geografik jihatdan savdo yo'llariga tutashgani bu yerda davlatchilik va madaniy hayotning o'ziga xos shaklda rivojlanishiga zamin yaratgan. Arxeologik topilmalar, epigrafik va numizmatik manbalar Xorazmning ilk davrlardanoq mustaqil hokimiyat ramzlari, yozuv tizimi va tanga-pul muomalasiga ega bo'lganini tasdiqlaydi.

Yozma manbalarda qayd etilgan "Xorazm dengizi" atamasi Orol dengizi bilan bog'liq holda, hududning geografik va iqtisodiy hayotida suv yo'llari va tabiiy manbalarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, Xorazm turli etnik va madaniy elementlar o'zaro uyg'unlashgan mintaqaviy markaz sifatida Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lovchi muhim hudud sifatida namoyon bo'lgan.

Numizmatik ma'lumotlar va arxeologik izlanishlar esa Xorazm vohasining nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham O'rta Osiyo davlatchilik an'analariining uzviy tarkibiy qismi

ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, Afrig'iylar sulolasi davrida zarb etilgan tangalar mahalliy davlatchilikning barqaror va rivojlangan tizimga ega bo'lganini isbotlaydi.

Shunday qilib, Xorazm vohasi tarixi — bu nafaqat mahalliy hokimiyat an'analari, balki keng Yevrosiyo kengliklaridagi etnik, madaniy va iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq jarayon bo'lib, u o'rta asrlar sharq sivilizatsiyasida alohida o'rin tutadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Бобоёров Ғ. Илк ўрта аср манбаларида Туркистон атамаси // "Ўзбек халқининг келиб чиқиши, илмий-методологик ёндошувлар, этногенетик ва этник тарих" мавзусидаги республика илмий-назарий семинар материаллари. – Тошкент, 2004. – Б. 40-43; Бобоёров Ғ. "Турон ҳукмдори ҳоқон" унвонли тангалар // O'zbekiston tarixi, №3. 2019. В. 3-17.
2. Бобоёров Ғ. Турк ҳоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 48-50.
3. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – С. 29, 33; Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – С. 106-182; Баратов С.Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана. №1 (6), 2013. – Самарканд, 2013. – С. 35.
4. Беруний 1968: 71.
5. МИТТ 1939: 431.
6. Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 2008. – Б. 8.
7. Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б.10
8. Худуд ул-олам (Мовароуннаҳр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Б. 22.
9. Ибн Ҳавкал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннаҳр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С. Ҳасанов. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 38-39.
10. Ибн Ҳавкал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннаҳр. Араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С. Ҳасанов. – Б. 37-38.
11. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – С. 32, 50, 86; Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – С. 183-185.
12. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – С. 100.
13. Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – С. 100.
14. Толстов, С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит // Вестник древней истории. – 1938. – № 4 (5). – С. 120-145; Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Издание МГУ, 1948.
15. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – Москва, 1977.
16. Толстов С. П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Издание МГУ, 1948.
17. Ртвеладзе Э. В. Древние и раннесредневековые монеты историко-культурных областей Узбекистана. Т. 1. – Ташкент: Media Land, 2002; Зеймаль Е.В. Монеты раннесредневековой Средней Азии // Археология. Средняя Азия и Дальний Восток в эпоху средневековья. – М., 1999. – С. 192-206; Бирюков Д.В. Монета в жизни народов Трансоксианы. Факты, проблемы, концепция // Нумизматика Центральной Азии, вып. VII. – Т., 2004. – С. 7-19.
18. Артев В. В. Новое имя в нумизматике античного Хорезма. Пятнадцатая всероссийская нумизматическая конференция. Тезисы докладов и сообщений.

- Ростов-на-Дону, 20–25 апреля 2009 / отв. ред. И.В. Ширяков. М.: Издательство «Нумизматическая литература», 2009. – С. 54-56.
19. Бернштам А. Н. Согдийская колонизация Семиречья // Краткие сообщения о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. – М. -Л., 1940, №6. – С. 34–43
 20. Бернштам А. Н. Тюркешские монеты. – С. 105-111; Зеймаль Э. В. Политическая история Трансоксианы по нумизматическим данным. – Ленинград, 1978; Бурнашева Р. З. Отрар. Отрарский оазис и Южный Казахстан. Нумизматическая исследования по денежному делу южноказахстанских городов VII – XVII вв. – Алма-Ата, 1989; Настич В. Н. Монетные находки с городища Красная Речка (1978-1983 гг.) / Красная Речка и Бурана. Материалы и исследования Киргизской археологической экспедиции. – Фрунзе, 1989; Baratova L. Alttürkische Münzen Mittelasien aus dem 6. –10. Jh. N. Chr. – P. 219–292.
 21. Вайнберг Б. И. Монеты древнего Хорезма. – С. 13, 15.
 22. Горин А.Н. Некоторые проблемы истории и нумизматики северной бактрии в свете новых открытий (по материалам монетных находок крепости Узундара) // Культурное наследие Евразии (с древности до наших дней). Сборник научных статей. Алматы: Институт археологии им. А. Х. Маргулана, 2016. – С. 252-341.
 23. Горин А. Н. Кушанские монеты из Бухарского оазиса // Бухарский оазис и его соседи в древности и средневековье. Труды государственного эрмитажа LXXV. – Санкт-Петербург, 2015. – 53-62.
 24. Vondrovec K. Coinage of the Iranian Huns and their successors from Bactria to Gandhara (4 th to 8 th century CE). Vol. I. Edited by Alram M And Lerner J. A. – Wien, 2014; Пугаченкова Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия – Тохаристан. Очерки истории и культуры древность и средневековье. – Ташкент, 1990. – С. 129-131.
 25. Сулейманов Р. Х. Древний Нахшаб. – С. 290.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).